

## HAJVIIY SHE'RIYATDA HASHAROTLAR OBRAZI BILAN BOG'LIQ POETIK TURKUMLAR TALQINI

(*Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyati misolida*)

*Oybek Barziyev*

*FarDU katta o'qituvchisi filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

*Barchinoy Sayitxonova*

*Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysida yashab ijod etgan Muqimiy, Zavqiy, So'fizoda, G'urbatij qalamiga mansub bo'lgan hajviyalardagi hasharot obrazlarining ahamiyati haqida gap boradi. Insoniyatga doim zarar keltiradigan zararli jonzoqlar: pashsha, burga, bit kabi obrazlar orqali davr manzarasini yoritish maqsad qilib olingan. Bu kabi hasharotlar obrazi mafkuraviy tazyiq ostida bezigan oddiy xalq hayotini atroflicha yoritib berilishiga xizmat qilganligiga alohida urg'u berilgan.

**Kalit so'zlar:** hajviya janri, pashsha, burga, bit obrazlari, xalq noroziligi, diniy ulamolar obrazi, majoziy ma'no, kinoya va piching, avom xalq hayoti, ijtimoiy muhit.

Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida bir qator jamiyatda ildiz otib borayotgan muammolarni ijtimoiy lirikaning asosiy mavzusiga aylanib borganligi ma'lum. Bu kabi muammolar hajviy lirikaning asosiy o'zak mavzularidan bo'lib, ular davrning bir qator hajvgo'y shoirlari ijodida ommalashib bordi.

Milliy uyg'onish davri Farg'ona vodiysi she'riyatida shoir Muqimiy ijodida ko'plab kuzatilgan muayyan hasharot nomi bilan bog'liq bo'lgan hajviy asarlar sikli a keldi. Muqimiy, So'fizoda va Zavqiy ijodida uchrovchi ayrim parranda yoki hasharotlar nomi bilan bog'liq poetik turkumlilik o'sha davrning Farg'ona vodiysi she'riyatida yanada ommalashdi. Masalan, Muqimiy hajviyasida uchrovchi jo'ja, laylak yoki pashsha hamda iskabtopar obrazlari, So'fizoda ijodida qumri, bulbul, bedana, dakang yoki burga obrazlari, Zavqiy hajviy asarlarida esa pashsha obrazi, G'urbatij hajviyasida burga va bit kabi insonlarga hamisha zarar keltiruvchi mayda zararkunadalar nomlari bilan almashgan holda ucaydi.

Muqimiy va Zavqiy ijodida uchrovchi iskabtopar va pashsha obrazlari o'z davrida avom xalqni "chaqib" talayotgan chor chinovniklar, mahalliy amladorlarning olib borgan kirdikorlari keskin fosh etiladi. Bu kabi jonzoqlarning ishi doim insonlarga azob berish ekanligi o'ziga xos kinoyalar bilan tasvirlanadi. Muqimiyning "Dar mazamati iskab topar" nomli yumoristik she'rida iskabtoparning insoniyatga qilayotgan salbiy ta'siri

Nayzasini zaxmidin hargiz omon topmas kishi,

Qo‘llarida nayza – qoningni ichar iskab topar<sup>1</sup>

tarzida aks ettirilgan bo‘lib, ularning daf qilmoq mushkul ekanligi aytib o‘tiladi. Shu bilan birga iskab toparlardan berkinib panoh topish ham qiyin va murakkab jarayon bo‘layotgan bir davr kelganligiga ishora qilinadi:

Damlaring qaytib o‘larsan yopinib, olsang o‘zing,

Yo‘qmukan daf‘ig‘a tadbiri digar, iskab topar.

G‘urbatiyning “Hajvi burga” nomli hajvijasida esa burga “iblis maktabida o‘qib, hiyla darsini olgan” tarzida o‘ziga xos tashbehtar bilan tasvirlanadi:

Iblis maktabida o‘qib hiyla darsini,

Dog‘ulidin ziyoda bu makkor burgalar<sup>2</sup>.

Uning kishilarga ko‘rsatayotgan salbiy ta‘sirini esa u firibgardan ham kuchli makkorligini aytib o‘tadi va kunduzi yaktakning chokida, kechasi ko‘rpa ichiga joylashib kishilarga hamisha azob berishga shay ekanligi bilan izohlanadi:

Yuz karra ko‘rpalarni qoqib to tong otguncha,

Tishlab tanimni qildi dilafkor burgalar.

Yaktakni choki ichra tutib kunduzi vatan,

Kech bo‘lsa, shom vaqtida tayyor burgalar.

Burga obraziga murojaat qilgan namanganlik shoir Muhammadsharif So‘fizodaning “Burgalar” radifli hajviy g‘azalida ham insoniyatga zarar va ofat keltiruvchi mazkur jonivorning azaliy salbiy illatlari fosh etiladi. G‘azalda burgalar shoir yashab ijod etgan davrdagi aholiga tinmay azob berayotganligi keskin ochib berilgan. G‘azalning matla‘ qizmidagi burgalar “berahm” va “bag‘ritosh”, “jafokor” sifatida ta‘riflangan bo‘lib, u ozor beruvchi, shu bilan birga lirik qahramonni kechalari ham uxlatmay ag‘anab chiqishiga sababchi bo‘layotganligi bilan boshlanadi:

Berahm, bag‘ritosh, jafokor burgalar,

Berding manga ko‘p muncha ham ozor burgalar.

Har yonga urib oh ila o‘zni sitamingdan,

Ag‘nab chiqaman kechasi bedor burgalar<sup>3</sup>.

G‘azalning keyingi baytlarida shoir ham boshqa zamondoshlari kabi burganing qo‘nim topgan yeri va yaramas ishlari haqida to‘xtaladi. Shu bilan birga uning noma‘qul ishlari yilning qaysi oylarida avj olishi va Yaratganning nomlaridan biri

<sup>1</sup>Муқимий. Ҳажвийёт. Икки томлик асарлар тўплами. II том / Нашрга тайёрловчи: Каримов Ф. – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1960. – Б.74.

<sup>2</sup>Девони Фурбатий. (Мулла Умаржон Маҳдум Юсуфбек ҳожи ўғли) / Нашрга тайёрловчилар: Алишер Бек., Умаров Х. “Фарғона” нашриёти, 2008 – Б. 218.

<sup>3</sup>Ибрат Сиддиқий-Ажзий Сўфизода. Танланган асарлар / Тўпловчи, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши ва луғат муаллифлари: Қосимов Б., Аҳмедов С., Долимов У. – Тошкент: Маънавият, 1999. - Б. 220.

“Qahhor”, ya’ni qahrli ekanligiga alohida ishora qilinadiki, bu bilan burgalarga faqat u jazo berishi muqarrarligi haqida yozadi:

Kirgach, saraton birla asad, sunbula sabza,  
Sakrab turasan ko‘rpada tayyor burgalar.

Dunyoda yomon sen kabi mahluq bo‘lurmu,  
Sizlarga jazo bermasa qahhor, burgalar.

Shu o‘rinda o‘z davridagi qoloq ijtimoiy qatlamlardan biri hisoblangan dehqonlar va ularning og‘ir tumush tarziga yashirin ishora qilinganligini eslash joiz. Dehqonning sabza, ya’ni ko‘klamdan boshlab qilgan mehnatidan foydalanishni boshlagan davr “burgalari” ularning aynan hosili pishib yetilgan oylar: saraton (iyul), sunbula (avgust), asad (iyun) da mahalliy amaldorlarning o‘rinlaridan turib, bu kabi bechoralarning mehnatini talaganligi ayni haqiqatdan darak beradi. So‘fizoda qo‘llagan ko‘rpa detali joy yoki dala ma’nosida kelgan bo‘lib, shoirning boshqa ijodkor zamondoshlarining hajviyalarida ham aynan shu “ko‘rpaga joylashib olgan burgalar”ning ayovsiz qilmishlari fosh etilgan.

Zavqiy qalamiga mansub “Pashshalar” nomli hajviyasiga “Muqimiyning “Qurbaqalar” she’riga javob” deb epigraf qo‘yilgan. Unda ham kishilarga aziyat yetkazishda tengi yo‘q bo‘lgan pashsha obrazidan unumli foydalangan shoir o‘zi yashab ijod etgan davr manzarasini yoritishga harakat qiladi. Pashshaning bergan azoblari Muqimiy va G‘urbatiy tomonidan berilgan tasvirlar bilan hamohanglikka ega. Shoir hajviyasida pashshalarning rangiga ham alohida urg‘u bergani holda o‘z davrida zamonaning o‘zi “oq va qora”ga aylanib ulgurganligiga alohida ishora qilinadi:

Kechasi oqi urur nish, kunduzi qorasi,  
Xoh peshin, xoh bomdod qo‘ymas pashshalar<sup>4</sup>.

Shoir hajviyasining keyingi baytida xuddi G‘urbatiy Yaratgandan panoj so‘rab, pashshalardan o‘ziga zarracha bo‘lsa ham madad kutishi haqidagi mazmun yetakchilik qiladi:

Ey Xudo, bergil omon, zarra magasni (ng) sharridin,  
Ayla biz ojizga bir imdod qo‘ymas pashshalar...

G‘urbatiyning “Hajvi bit” nomli hajviyasida ham o‘z davrining kishilariga azob va uqubat berishda nom qozongan insonlarning qonini so‘rib rohatlanadigan hashorat nomi asos qilib olingan. Shoir bitning qilmishlari ayovsiz ekanligiga urg‘u bergani holda u aholini xasta qilib, et va ustini chaqib xuddi ajdahodek kemirayotganligiga qiyoslaydi:

Shomdin subhigacha sabru qarorini olib,  
Dambadam qoningni so‘rmoqqa shitob aylar bit.

<sup>4</sup> Завкий. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчи: Раззоқов Ҳ. – Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1960. - Б.71.



Ajdarxodek kemirib go'sht ila po'stini tamom,  
Xastayi log'ar etib misli tanob aylar bit<sup>5</sup>.

Shoir hajviyasining so'nggida bit va burganing qilmishlarini yozsa, bir kitob bo'lishi mumkinligiga alohida urg'u beradi:

Bit ila burga haromini bu tun hajv qilib,  
G'urbatiy yozsa agar katta kitob aylar bit.

Muxtasar qilib aytganda, milliy uyg'onish davri o'zbek she'riyatida hajviyaning maydonga kelishida asosan ijtimoiy muhitda yuz berayotgan turli muammolar sababchi bo'ldi. Bu kabi jamiyatda kundan-kunga avj olib borayotgan muammolarni atroflicha yoritishda kinoya va piching kabi so'z o'yinlari o'ziga xos ahamiyatga ega. Hajviya janrida hasharot obrazlari bosh obraz sifatida faol qo'llanib, ular asosan hukumat rahbarlarining olib borgan faoliyatini ro'yi-rost yoritishga xizmat qildi. Natijada ushbu yo'nalishda bitilgan hajviyalarning salmog'i hasharotlar obrazining orqali yanada boyib bordi.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Muqimiy. Hajviyot. Ikki tomlik asarlar to'plami. II tom / Nashrga tayyorlovchi: Karimov G'. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.

2. Devoni G'urbatiy. (Mulla Umarjon Mahdum Yusufbek hoji o'g'li) / Nashrga tayyorlovchilar: Alisher Bek., Umarov H. "Farg'ona" nashriyoti, 2008

3. Ibrat Siddiqiy-Ajziy So'fizoda. Tanlangan asarlar / To'plovchi, nashrga tayyorlovchi va so'zboshi va lug'at mualliflari: Qosimov B., Ahmedov S., Dolimov U. – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.

4. Zavqiy. Tanlangan asarlar / Nashrga tayyorlovchi: Razzoqov H. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1960.

5. Devoni G'urbatiy. (Mulla Umarjon Mahdum Yusufbek hoji o'g'li) / Nashrga tayyorlovchilar: Alisher Bek., Umarov H. "Farg'ona" nashriyoti, 2008.

---

<sup>5</sup>Девони Ғурбатий. (Мулла Умаржон Маҳдум Юсуфбек хожи ўғли) / Нашрга тайёрловчилар: Алишер Бек., Умаров Х. "Фарғона" нашриёти, 2008. – Б. 219.